

Maydon Tushunchasi Va Turli Tizimli Tillarda “Ko‘Ngil” Leksik-Semantik Maydoni Tadqiqi

Ahmedova Muyassarxon¹ Rahimova Yulduzxon²

Annotatsiya: Ushbu maqola til tizimi tushunchasi va leksik-semantik maydon haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqola ko'ngil so'zining izohli lug'ati bilan ham tanishtirib, o'zbek tilidagi bir nechta ma'noviy birliklarini tahlil qiladi. Shuningdek, turli tizimli tillardagi “ko'ngil” konseptining leksik-semantik jihatlarini yoritib o'tadi va bu bo'yicha turli tizimli tillardan turli namunalar keltiriladi. Nazariyalar misollar orqali yoritiladi.

Kalit so'zlar: konsept, leksika, semantika, maydon, leksik maydon, semantik maydon, old qo'shimcha, orqa qo'shimcha, o'zak.

Qiyoslanayotgan turli tizimli tillarda (misol uchun: zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida) “ko'ngil” va uni leksik-semantik jihatdan tizimli tadqiq qilish uchun, avvalo, «leksik-semantik» konsepti maydonini tizimli taxlilga tortish maqsadga muvofiqdir. Dastlab, tilshunoslikdagi “maydon” tushunchasiga biroz to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Maydon nazariyasi bo'yicha jahon tilshunosligida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ammo, milliy tilshunosligimizda endi ommalashayotgan va ochilayotgan qonuniyatlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, “Maydon va uning mohiyati nima?” degan savolga hozirgi zamonaviy tilshunosligimizdagi qarashlar va javoblar turlicha.

Maydon tushunchasi aslida fizika sohasida paydo bo'lgan bo'lib, “fizik hodisa voqelanadigan yoki uning ta'siri paydo bo'ladigan fazo”² sifatida izohlanadi.

Tilshunoslikda esa “maydon” quyidagicha talqin qilinadi. Ya'ni biz maydon so'zini semantika bilan bog'liq holda talqin qilamiz. Bu ikkala so'z “semantik maydon” tarzida talqin etiladi.

Tilshunoslikda semantikaning asosiy vazifasi ma'nolari bilan bog'langan so'zlarni birlashtiradi. Bunday so'zlar, odatda bir leksik – semantik guruhni tashkil qiladi. Jumladan,

rang bo'yoqni bildiruvchi so'zlar – oq, qora, pushti:

vaqtini bildiruvchi so'zlar – peshin, shom, sahar, namozshom vaqti

harakat – holatni ifodalovchi so'zlar – tez, sekin, sokin, asta

Ular alohida semantik maydonga egadir.

Maydonni tilshunoslikda umumiy sememaga ega, bir arxisema bilan birlashuvchi leksik birliklar majmui sifatida tushunish XIX asrdan, xususan, M. M. Pokrovskiy tadqiqotlaridan boshlangan. A. Ufimseva semantik maydon nazariyasi va uning lug'at tarkibini tahlil qilishdagi imkoniyatlarini yoritdi. Maydon nazariyasi bo'yicha maxsus fikr bildirgan B. Yo'ldoshev “XIX asrga kelib fizikadagi maydon nazariyasi ta'sirida tilshunoslikda ham maydon tushunchasining nazariy talqini yuzaga kelgan va tilshunoslikda asosan mazmuniy maydon sifatida ro'yobga chiqqan”³ ligini takidlaydi. Dastlab

¹ o'qituvchi

² magistr Farg'ona davlat universiteti

² O'zbek tilining izohli lug'ati T 2-Toshkent: O'zbekiston Ensiklopediyasi (2006,228-bet).

³ Yo'ldashev B. Maydon nazariyasining tilshunoslikka ta'siri haqida. O'zbek filologiyasi masalalari (ilmiy maqolalar to'plami) Navoiy,2001.-43,-44 betlar.



maydon nazariyasi tilning leksik sathida o'rganilib, tezauruslar yaratish, ideografik lug'atchilik amaliyoti uchun xizmat qilgan.

Lingvistikada "ma'no" (mazmun) umumiyliigi bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funktional) o'xshashlikni aks ettiruvchi til birliklari (asosan, leksik birliklar) yig'indisi maydon sifatida belgilanadi.⁴

Lisoniy birliklarning ma'lum ma'no asosida birlashuvi, ma'lum bir tildagi lug'aviy birliklarni ana shunday mazmuniy uyalarga birlashtirish sharq tilshunosligida yetarlicha rivoj topgan. Keyinchalik esa XIX asrda lisoniy birliklarni mazmuniy guruhlariga ajratish g'oyasi Yevropada avj ola boshladi. Shunga ko'ra bu nazariya Yevropa tilshunosligi bilan uzviy bog'lanib qoldi.

XIX asrda leksik (umuman, til) birliklar umumiyligiga M. Porkovskiy tomonidan e'tibor qaratildi. Maydon tushunchasining nazariy talqini. I. Trir, G. Ipsin, V. Porsig, L. Vaysgerber, A. Yolles ishlarida ko'zga tashlanadi, keyinroq A. A. Umiseva, N. I. Filicheva, Yu. N. Karaulov, G. S. Shchur kabi ko'plab olimlar ishlari bilan bu nazariya yanada rivoj topdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, lingvistikaga maydon nazariyasi semantik maydon tushunchasi sifatida kirib keldi.

Xo'sh, mazmuniy maydon nazariyasi paydo bo'lishining qanday asoslari mavjud?

Bu nazariyaning paydo bo'lishi asrimizning 20-30 yillariga to'g'ri kelib, u V.Gumboltning "tilning ichki shakli" xususidagi ta'limotini qayta yangi yo'nalishda ko'rib chiqilishi bilan bog'lanadi. Bu davrda uzoq davom etgan lisoniy tadqiqotlarning asosiy obyekti bo'lgan — tilning ichki shakli sifatidagi ilmiy bahslar ushbu nazariyaning dunyoga kelishi uchun asos bo'ldi.⁵

"Mazmuniy maydon" termini o'sha paytlarda tadqiqotchilar tomonidan turlicha izohlandi I.Trir mazmuniy maydon sifatida "tushunchalar maydoni", "tushunchalar darasi" ni nazarda tutdi. L.Vaysgerber — "til mazmuning ma'lum qismi", "tarkibning bo'lagi", V.Porsig — "ma'nolarning mohiyatan bog'liqligi", T.Ipsen mazmuniy va grammatik jihatdan bog'langan guruhini semantik maydon tarzida talqin etadi. A. Yolles esa uni "semantik birlashish" deb nomlab, uning doirasida antonomik juftliklarni belgilaydi. F. Dornzayf va V. Vartburglar til lug'aviy tarkibi ajralish mumkin bo'lgan semantik guruhlarida mazmuniy maydonni ko'radilar.

Yuqoridagi tadqiqotchilar semantik maydon atamasini har xil tarzda izohlashlariga qaramay, ularni semasiologik tadqiqotlar asosi bo'lgan, "tilning ichki shakli" ni tushunishda tilni har tomonlama va turlicha munosabatlarda o'rganishlari bilan birlashtirish mumkin.

Tilshunoslikda "maydon" tushunchasining uzil-kesil shakllantirishiga yordam bergan hal qiluvchi tadqiqotlaridan biri L. Vaysgerberning ishlari bo'ldi. Vaysgerber fikricha, tilni ruhiy mazmunning oddiy vositasi sifatida emas balki dunyoni intellektual shakli sifatida o'rganish zarur, uningcha, semasiologiya - ma'nolar xususidagi fan bo'lmay, tushunchalar haqidagi ta'limot bo'lishi kerak.

Yuqorida ta'kidlanganidek, tilshunoslikda maydon nazariyasi bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p tadqiqotlar mavjud bo'lib ularning mualliflari maydonning mohiyatini turlicha talqin etdilar. Bu ishlarni kelib chiqqan holda, Yu. N. Karaulov maydonning asosiy xususiyatlarini quyidagicha belgilaydi:

- a) maydon elementlarining o'zaro aloqasi: bunda elementlarning mazmuniy o'zshashligi, mazmuniy munosabatdorligi (semantik korrelyatsiyasi) obyektga bo'lgan munosabati nazarda tutildi;
- b) maydon elementlarining belgilanishi bir – biriga nisbatan farqlari asosida bazan bu xususiyat o'zaro almashinish sifatida ham tariflanadi;
- c) mazmuniy maydonlarning mustaqilligi (yuqoridagi xususiyatlaridan kelib chiqadi);

⁴ — Лингвистический энциклопедический словарь. М. Советская энциклопедия.1990.380с.

⁵ Ufimseva A.A. Teorli «Семантического поля» и возможности их применения при изучении словарного состава языка. Вопросы теории языка и современной зарубежной лингвистике: т 1961. – с.30.



d) turli tillarda maydon xususiyatlarining o'ziga xosligi (tarixiy tarkibi, milliy jihatlari).

Quyida biz "ko'ngil" konseptini ifodalovchi, ya'ni voqealantiruvchi sathlararo til birliklarining har birini empirik misollar asosida ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Eng avvalo har bir til birligining qaysi bo'limda o'rganilishi, ta'rifi va vazifasi bilan tanishib chiqsak:

1. Morfema. Morfemika so'zning eng kichik ma'noli qismlari haqidagi ta'limotdir. Bu kichik qismlar tilshunoslikda morfemalar deyiladi. Masalan, rejadagilarimizga so'zi paxta-da -gi -lar -imiz -ga qismlaridan iborat. Bu qismlar turli xil so'zlar tarkibida qatnashib, o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi. Bu qismlar yana bo'linadigan bo'lsa, uning ma'nosi yo'qoladi. Shunday ekan, morfema so'zning eng kichik ma'noli qismidir.

Ingliz tilida morfemaga berilgan ta'rif ham o'zbek tilida berilgan ta'rifga yaqin. Morfema tildagi eng kichik ma'noli til birligi hisoblanadi. Morfema so'z bilan bir xil emas. Ular orasidagi farq shundaki, morfema o'z xolicha qo'llanila olmaydi, lekin so'z qo'llanila oladi. Morfemalar morfologiya da o'rganiladi. Morfemalar yakka holda ishlatilsa, o'zak morfemalar (root morphemes), agar ular boshqa morfemalardan ma'no jihatdan tobe bo'lsa, bular (affixitional morphemes) affiksial morfemalar hisoblanadi. Misol uchun, *dog* (root morpheme), *dogs* (affixitional morpheme). Chunki affiksial morfema grammatik vazifani bajarmoqda, ya'ni *dogs* so'zida ko'plik shaklini yasamoqda. Har bir so'z bir yoki bir necha morfemalardan tashkil topadi.

O'zbek tilida morfemalar ma'no va vazifasiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

- a) O'zak morfema
- b) Affiksial morfema

O'zak morfema so'zning leksik ma'nosini bildiruvchi asosiy qism bo'lib, qo'shimchalar shu o'zak bilan birgalikda qo'llanadi. Shunga ko'ra, o'zak morfema asosiy morfema deb ham yuritiladi. O'zak morfema so'z yasalishi uchun ham, shakl yasalishi uchun ham asos hisoblanadi. U so'zning semantik yadrosini tashkil etadi. Masalan, ko'ngilli, ko'ngilsiz kabi so'zlarda ko'ngil - so'z yasalishi uchun ham, shakl yasalishi uchun ham asos hisoblanadi. U so'zning semantik yadrosini tashkil etadi. O'zak morfema yasama bo'lmaydi, u faqat tub bo'ladi.

Affiksial morfema deb, qo'shimcha mustaqil qo'llanmaydigan, bog'liq holda, o'zakka qo'shib keladigan, o'zakning leksik -grammatik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan har xil ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladigan morfemaga aytiladi. Affiksial morfema ergash yoki yordamchi morfema deb ham ataladi. Masalan, gulchi so'zidagi *-chi* qo'shimchasi gullarning bir turi ma'nosiga shu gul bilan shug'ullanuvchi shaxs belgisini qo'shadi.

Affiksial morfema o'z o'rnida so'z yasovchi qo'shimchalar hamda shakl yasovchi qo'shimchalarga bo'linadi.

O'zak morfemalar: a) so'z yasovchi:

o'zbek tilida: *ko'ngil/siz* (sifat),

Dashtlab ko'ngilsiz bo'lib, keyin ko'nikib ketganlar ozmi? Sabr qil.. ehtimol, baxting ochilib ketar. I. Rahim, «Ixlos».

ingliz tilida, *heart/less*, (adjective)

She denounced the cutbacks on aid to the poor as heartless and shortsighted policies.

Misol uchun, *plan* (root morpheme), *plans* (affixitional morpheme). Chunki affiksial morfema grammatik vazifani bajarmoqda, ya'ni *plans* so'zida ko'plik shaklini yasamoqda. Har bir so'z bir yoki bir necha morfemalardan tashkil topadi. Quyida "ko'ngil" maydonida qo'llaniladigan o'zak morfemalarni affiksial morfemalar bilan birga ko'rib chiqamiz:



O'zak	Affiksial	Root	Affixitional
morfema	morfema	morpheme	morpheme
<i>ko'ngil</i>	<i>ko'ngilchak</i>	<i>heart</i>	<i>hearts</i>
	<i>ko'ngilchaklik</i>		<i>heartly</i>
	<i>ko'ngilchan</i>		<i>heartth</i>
	<i>ko'ngilchanlik</i>		<i>heartily</i>
	<i>ko'ngillamoq</i>		<i>hearted</i>
	<i>ko'ngilli</i>		<i>heartless</i>
	<i>ko'ngillik</i>		<i>heartiest</i>
	<i>ko'ngilsiz</i>		<i>heartiness</i>
			<i>heartlessness</i>
			<i>heartlessly</i>

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, birgina ko'ngil so'zidan bir nechta so'zlar yasalishi mumkin ekan. Uning ingliz tilida ekvivalenti qilib olingan *heart* so'zi ham xuddi shunday bir talay so'zlarning o'zak morfemasiga aylandi. Agar diqqat bilan e'tibor beradigan bo'lsak, o'zbek tilida ham, ingliz tilida ham deyarli barcha so'zlarda *ko'ngil* va *heart* so'zlari prefiks-old qo'shimcha emas, balki suffiks-orqa qo'shimchalar yordamida yasalmogda, ya'ni so'zlar qo'shimchalarni olib, orqaga qarab kengayib ketmogda. Bu ikkala tilning ham agglyutunativ xususiyati borligidan dalolat beradi.

Demak, ingliz va o'zbek tillari turli tizimli tillar qatoriga kirishiga qaramay, ko'ngil leksik-semantik maydonining aynan shu jihati ularni birlashtirib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oxford Advanced Learner's Dictionary, 7th Edition.
2. To'y konsepti verbalizatorlarining lingvokognitiv maydoni va lingvokulturologik jihatlarining qiyosiy tadqiqi. G'.M.Hoshimov. Z.A.Qo'chqorova. Far Du xabarnomasi. 2020 № 3
3. Ufimseva A.A. Teorli «Семантического поля» и возможности их применения при изучении словарного состава языка. Вопросы теории языка и современной зарубежной лингвистике: Т 1961. – с.30.
4. Yo'ldashev B. Maydon nazariyasining tilshunoslikka ta'siri haqida. O'zbek filologiyasi masalalari (ilmiy maqolalar to'plami) Navoiy, 2001.-43,-44 betlar.
5. Лингвистический энциклопедический словарь. М. Советская энциклопедия. 1990. 380с.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati Т 2-Тoshkent: O'zbekiston Ensiklopediyasi (2006, 228-bet).
7. Yusupova, S. (2022). ИЖТИМОЙ ГУРУХЛАРДА ХУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ ИФОДАЛАШИ. Science and innovation, 1(B5), 350-352.
8. A'zamjonovna, Y. S. (2022). INGLIZ TILIDA EMOTSIYALARNING GRAMMATIK IFODALANISHI. PEDAGOGS jurnali, 20(2), 65-68.
9. To'lanboyeva, G., Yusupova, S., & Mirzayeva, D. (2022, November). CULTURE AND LINGUISTICS. RELATIONSHIPS. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 6, pp. 82-88).
10. M. Axunova, & S. Yusupova (2022). SON KATEGORIYASINING QO'LLANILISHI VA UNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QIYOSLANISHI. Science and innovation, 1 (B7), 736-739.



11. G. Tolanboyeva, & S. Yusupova (2022). LINGVOKULTUROLOGIYA O'RGANILISH TARIXI. Science and innovation, 1 (B6), 540-543.
12. Юсупова, С. А. (2022, September). ЎЗБЕК ТИЛИ ТИПОЛОГИЯСИДА ҲУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 1, pp. 10-14).
13. Юсупова, С. А. (2022, September). ЎЗБЕК ТИЛИДА ҲУРМАТ ИФОДАЛАШНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 1, No. 1, pp. 10-14).
14. Sabohatxon, Y., Zilolaxon, T. Y., & Shaxlo, Y. L. (2022). EXPRESSION OF METAPHOR IN DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES. RESEARCH AND EDUCATION, 1(2), 209-212.
15. A'zamjonovna, Y. S. (2022). GARRI POTTER HIKOYASIDA ME'MORCHILIK. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1103-1104.
16. Maftuna Erkin qizi, J. ., Kamilla Andreyevna, P. ., Sabohat A'zamjonovna, Y., & Farhod Faxriddinovich, U. . (2022). MEDIA DISCOURSE FEATURES. Scientific Impulse, 1(3), 561–565.
17. Odilova Mavluda To'lg'injon Qizi, & Yusupova Sabohatxon A'Zamjonovna (2022). JAMAL KAMAL'S TRANSLATION OF SHAKESPEARE'S WORKS. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (12), 101-104.

